

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA TARIXIY
VAZIYAT VA ABDURAUFI FITRAT IJTIMOYIY-SIYOSIY
DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHIDAGI OMILLAR**

Qosimova Mehrinoz Shokir qizi

Buxoro davlat universiteti magistranti

+998 91 246 04 66 Email: mehrinozqosimova1993@gmail.com

Anotatsiya: *Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi tarixiy-siyosiy vaziyat hamda Abduraufi Fitratning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir etgan omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Buxoro amirligidagi siyosiy boshqaruv tizimi, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy holat va madaniy-ma’rifiy muhitning o’ziga xos jihatlari yoritilib, ularning jadidchilik harakati rivojiga ta’siri ko’rsatib beriladi. Maqolada Fitratning ilk dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o’ynagan tarixiy sharoitlar, xususan, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, diniy-muhtdagi konservativ qarashlar hamda ma’rifatga bo’lgan ehtiyoj kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, uning Istanbuldagi ta’lim jarayoni va jadidchilik g’oyalari bilan tanishuvi Fitratning siyosiy va ma’rifiy qarashlarining rivojlanishiga kuchli turki bo’lgani asoslanadi.*

Kalit so’zlar: *Buxoro amirligi, vaziyat, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, islohotchilik, ta’lim tizimi, mustamlakachilik, madaniy hayot, yoshlar tarbiyasi, Abduraufi Fitrat, Amir Olimxon, “Chig’atoy gurungi”.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligini boshqargan Amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida muhim rol o’ynaganlar. Ammo mahalliy hokimlarning amirlarga jamiyat hayotini ko’p hollarda boshqacha tarzda namoyon etgani mahalliy hukmdorlarni adolatlisi ham bo’lib ba’zilar xalqning haqiqiy hayotidan bexabar qolishlariga olib kelgan. Natijada Buxoro jamiyatini tubdan isloh qilish uchun jadidchilik harakati vujudga keldi. Jadidchilik o’z tarixida ikki bosqichni o’tgan. Birinchisi - ma’rifatparvarlik bosqichi va ikkinchisi - siyosiy bosqich. Lekin jadidlarning davlatchilik masalasiga qarashlari birinchi davrdanoq shakllana boshlangan va ikkinchi bosqichda aniq bir shaklga kelgan desa bo’ladi. Ikki yoqlama mustamlakachilik va mahalliy zulm ostida ezilib kelgan xalq ommasining og’ir iqtisodiy ahvoli, madaniy tanazzul hamda erkin fikrning qotib rivoj topmayotganligi kabi holatlar jadidlarni ijtimoiy taraqqiyot choralari izlab topishga undadi. Jadidchilik harakati shakllanib, kengayib borayotgan bir

paytda o‘zbek xalqining zabardast farzandi, milliy ozodlik kurashchisi Abdurauf Fitrat⁷⁷ tarix sahnasiga chiqib keldi. U Buxoro jadidchiligining eng ko‘zga ko‘ringan yorqin namoyandasi edi. Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug‘ilgan. Fitratning otasi Abdurahimboy o‘qimishli, dunyoning baland-pastidan xabardor kishi bo‘lgan. Savdo ishlari bilan Turkiya, Eron, Qashkarga tez-tez borib turgan. Onasining ismi Nastarin Bibi bo‘lib, taxminan 1866-yillarda tug‘ilgan. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand – ukasi Abdurahmon va singlisi Mahbuba bo‘lgan. XX asrning 20-yillarning faollaridan bo‘lgan, goho she‘r ham mashq qiladigan Mahbuba Rahim qizining nomi o‘quvchilarga bir qadar tanish. Abdurahmon esa XX asrning 10-yillarida Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo‘lib ishlagan⁷⁸.

Abdurauf eski maktabni tamomlagach, Mir Arab madrasasida o‘qigan. 1909-yili “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) jamiyatining ko‘magi bilan Istanbul dorulfunida tahsil olish uchun jo‘nab ketgan. Abdurauf Fitrat Turkiyada o‘qiyotgan vatandosh o‘quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma‘naviy yordam ko‘rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko‘paytirish va muntazamlashtirish maqsadida jamiyat tuzdi⁷⁹. 1913-yilning bahorida Istanbulda o‘qiyotgan bir guruh yoshlar - Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Atoxo‘ja, Fitrat, Homidxo‘ja vatanlariga qaytib keladilar va Buxoroda “usuli jadid” maktablarini ochadilar. Fitrat 1914-yillarda Buxoroda havaskor teatrchilik ishini yo‘lga qo‘ygan. Sahnada rollar o‘ynagan. Tushgan pullarni Birinchi jahon urushida jabrlangan musulmonlar foydasiga o‘tkazgan⁸⁰. Bundan tashqari, davriy matbuotda, jumladan, “Oyina” jurnali, “Samarqand” gazetalarida maqolalar nashr qildirgan. Jumladan, “Oyina” jurnalida “Buxoro hukumatining islohotchilik qadamlari” maqolasi chop etilgan bo‘lib, unda amir Olimxonning ta‘lim sohasida amalga oshirgan o‘zgartirishlari haqida ma‘lumot berdi⁸¹.

Fitratning asosiy xizmatlaridan biri “Chig‘atoy gurungi” jamiyatini yo‘lga qo‘yganligidir. “Chig‘atoy gurungi” 1918-yilning so‘nggi choragida yuzaga kelgan va 1919-yilning boshidan rasmiy suratda ishga kirishgan. Jamiyat Ishtirokiyun firqasi - TKP musulmon byurosining Turkiston xalqlari madaniy merosini to‘plash va o‘rganish haqidagi topshirig‘ini bajargan⁸². 1919 - 1921 yillarda faoliyat ko‘rsatgan ushbu madaniy-ma‘rifiy va ilmiy adabiy tuzilma turkiy xalqlar madaniyati, san‘ati, adabiyoti, tarixi, tili va imlosi kabi sohalarni jiddiy o‘rganishga kirishgan. Uning “Til va imlo to‘dasi”, “Adabiyot to‘dasi”, “San‘at va teatr

⁷⁷ Фитрат унинг тахаллуси бўлиб, ўзбек тилининг изоҳли луғатида “Фитрат” сўзи учрамайди. “Навоий луғати”да Фитрат сўзи “табиат, туғма табиат, яратилиш” деб изоҳланган.

⁷⁸ Қосимов Б. Маслакдошлар. Бехбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 71.

⁷⁹ 2 ЎзМА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 949-иш, 17-20-варақлар; Истанбулда Бухоро жамияти хайрияси // “Таржимон” газетаси. 1909 йил 25 декабр.

⁸⁰ ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 5-варақ.

⁸¹ Фитрат. Иқромот ислох корони ҳукумат Бухоро // “Ойина” журнали. 1915. № 8. – Б 198-200.

⁸² Қосимов Б. Маслакдошлар. Тошкент: Шарқ. 1994. – Б. 96.

to‘dasi” va boshqa bo‘limlari bo‘lgan. “Til va imlo to‘dasi”ga dastlab Cho‘lpon, so‘ngra Elbek rahbarlik qilgan⁸³. “Chig‘atoy gurungi” milliy tarixni o‘rganishga ham alohida e‘tibor qaratib, ishni aholi qo‘lida saqlanayotgan nodir manbalarni yig‘ishdan boshlagan. 1919-yili Turkiston ASSR va Turkiston o‘lkasi Musulmon byurosi “Milliy madaniy merosni to‘plash va o‘rganish haqida” Qaror qabul qilgan va bu ishni amalga oshirish uchun Abdurauf Fitrat, Nazir To‘raqulov va Laziz Azizzodadan iborat hay‘at tuzilgan. Gurung a‘zolaridan Po‘lat Soliyev, O‘ktam va Abdurauf Fitrat Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Samarqandga ilmiy safarlar uyushtirib, Buxorodan Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asari qo‘lyozmasi, Amir Temurdan boshlab, Zahriddin Muhammad Boburning nabirasi Akbarshohga qadar o‘tgan temuriylar qiyofasi aks ettirilgan tasvirlarni topib, Toshkentga olib kelganlar.

Abdurauf Fitrat tarixchi sifatida amirlik hududida sodir bo‘layotgan voqea hodisalarni faqat qog‘ozga tushiribgina qolmasdan, ularga faol siyosatchi, olim hamda davlat va jamoat arbobi sifatida o‘z munosabatini bildirib kelgan. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan voqea-hodisalarni xolis baholab, o‘zining ilmiy maqolalari, risola va asarlarida keng tadqiq qilib borgan. 1909-1913 yillarda Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosilib chiqdi. Chunonchi, 1909-yilda “Munozara” (“Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilg‘on munozarasi”) asari bosilgan. Ushbu asar zamonning zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma‘rifat haqida ikki xil dunyoqarashga ega bo‘lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi⁸⁴. Fitrat 1912-yilda Istanbulda nashr etilgan “Hind sayyohi bayonoti” asarida o‘lka hayotining ko‘plab muammolari – xalqning nochor hayoti, harbiy nozirlarning intizomsizligi, shahar va uning atrofidagi qishloqlarning ekologik ahvoli, el sog‘ligini saqlash – tabobat va davolash usullari, sanoat va ishlab chiqarishning nochor holati, qozixonalar ishi, qator viloyatlarning milliy gazetaga muhtojligi, yo‘l qurilishi, hatto temir yo‘llar, dehqonchilik va hunarmandchilik – hayotning barcha sohalarini keskin islohgacha muhtoj ekani hind sayyohining nazari orqali idrok qilinadi. Bu asarda nafaqat islohotchilik g‘oyalari, balki yangi kapitalistik munosabatlarga o‘tish ham targ‘ib qilingan⁸⁵.

Fayzulla Xo‘jayev “Hind sayyohi qissasi”ga munosib ta‘rif berib: “Fitratning “Sayyohi hindi” asarining ahamiyatini bu yerda qayd etmasdan o‘tolmaymiz. Faqat Buxorodagina emas, uning tashqarisida ham bu asar qiziqib o‘qildi. Keyin bu kitob rus tiliga tarjima kilinib, bosilib chiqdi”⁸⁶, deb qayd qilgan. Fitratning “Najot yo‘li” asari jadidlarning g‘oya va maqsadlarini baholashda yagona va birlamchi manbadir. Muallif millatni qoloqlikdan

⁸³ Тоғаев Т. “Чигатой гурунги” фаолияти тўғрисида баъзи мулоҳазалар // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №2. – Б. 424.

⁸⁴ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 46.

⁸⁵ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 98-168.

⁸⁶ Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 томлик. I том. Тошкент, 1976. – Б. 99.

qutqarish yo‘li deb islom dinining muqaddas kitobi Qur‘oni karimni biladi. Bu muqaddas kitob va islom dini g‘oyalari atrofida millatni jipslashtirishga da‘vat etadi. Uning fikricha, “Qur‘oni karim” – bu ilm va ma‘rifatdir, ota-bobolarimiz har sohada, ayniqsa, ilm va ma‘rifatda olam ahli uchun ibrat va namuna bo‘lganlar, ular har bir ilmning asosiy mohiyatini yaxshi bilib, undan yaxshigina istifoda va iste‘mol qilganlar³⁰. Fitrat Buxoroning taraqqiyotdan orqada qolib ketayotganiga asosiy sabab qilib, mamlakat aholisining savodsizligi, siyosiy ongi rivojlanmaganligi va ilmu ma‘rifatdan uzoqda ekanligini ko‘rsatdi. U mamlakatni tanazzuldan, xalqni nochor ahvoldan qutqarish uchun ilm-fanni rivojlantirish zarurligini uqtirdi.

Samarqandlik jadidlar tomonidan 1917-yilning 15-apreldan boshlab “Hurriyat” gazetasi chiqarila boshlaydi. Gazetaning 1918-yilgi 27-sonidan to oxirgi 87-sonigacha Abdurauf Fitrat muharrirlik vazifasini bajargan. “Hurriyat” gazetasida Abdurauf Fitratning “Bir o‘zbek yigitining tilidan” badiha⁸⁷si nashr qilingan bo‘lib, unda Vatan bosh-oyog‘i yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, ko‘ksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol timsolida tasvirlangan. Bu timsol, bu xayol “o‘zbek yigiti”ni tushida ham, o‘ngida ham ta‘qib qilgan. O‘zbek yigiti “g‘amli ona – muqaddas Turon”dan ayrilmoqni o‘zi uchun o‘lim, uning uchun o‘lmoqni esa tiriklik hisoblagan va uni qutqarishga qasam ichgan: “Ustimga ilonlar emas, shaytonlar qo‘shini kelsa, oyog‘imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sari choparman. Dunyoning butun balolari boshimga to‘kilsa, zulm cho‘lining temir tikonlari ko‘zlaring‘a kirsas, yana seni qutqaraman. Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman!.. O‘lim sening o‘liming istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga⁸⁸!”

Xulosa qilib aytgan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat Abdurauf Fitratning dunyoqarashi shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘ldi. Amirlikdagi siyosiy boshqaruv tizimidagi qoloqlik, ijtimoiy adolatsizlik, ta‘lim tizimidagi cheklanganlik hamda jamiyat hayotidagi konservativ qarashlar Fitratda islohotchilik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining kuchayishiga zamin yaratdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Fitratning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishida nafaqat Buxoro amirligidagi ichki tarixiy sharoitlar, balki uning Istanbuldagi ta‘lim jarayoni va jadidchilik g‘oyalari bilan tanishuvi ham muhim rol o‘ynagan. Bu jarayonlar uning tafakkurida

⁸⁷ **Badiha** – xalq og‘zaki ijodi an‘analari asosida tuyqusdan, birdaniga aytilgan so‘z, she‘r yoki qo‘shiq. Jahon xalqlari ijodida uchraydi. Muayyan asarni ijro yoki qayta ijro etganda ijodkorning unga kiritgan ijodiy o‘zgartishlari. Badiha san‘atning barcha turiga xos bo‘lib, tur va janrlar xususiyatiga ko‘ra turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Badiha deganda, ko‘p hollarda she‘riy ta‘bga ega, so‘zga chechan kishilarning tayyorgarliksiz, to‘satdan, qandaydir ichki tug‘yon bilan aytgan jozibali so‘zlari, satrlari tushuniladi. Lekin har qanday badiha yuksak tajriba va iqtidor bilan bog‘liq. Baxshilar, askiyachilar, masharabozlar, ertakchilar san‘atida bu yorqin namoyon bo‘ladi. Hatto xalq og‘zaki ijodining ayrim janrlari to‘laligicha badiha asosida ijro etiladi (masalan Askiya).

⁸⁸ Фитрат. Бир ўзбек йигитининг тилидан // “Хуррият” газетаси. 1917 йил 18 август.

yangilanish, milliy uyg‘onish va jamiyatni isloh qilish zarurati haqidagi qarashlarni mustahkamladi. Umuman olganda, Fitrat dunyoqarashining shakllanishi tarixiy muhit, ijtimoiy ehtiyoj va ma‘rifiy ta’sirlarning o‘zaro uyg‘unligi natijasi bo‘lib, u keyinchalik jadidchilik harakatining yirik vakili sifatida milliy taraqqiyot va ma‘naviy yangilanish g‘oyalari ilgari surishiga asos bo‘ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 46.
2. Фитрат. Иқромот ислох корони ҳукумат Бухоро // “Ойина” журнали. 1915. № 8. – Б 198-200.
3. Фитрат. Бир ўзбек йигитининг тилидан // “Хуррият” газетаси. 1917 йил 18 август.
4. Қосимов Б. Маслакдошлар. Бехбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 71.
5. Тоғаев Т. “Чиғатой гурунги” фаолияти тўғрисида баъзи мулоҳазалар // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №2. – Б. 424.
6. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 томлик. I том. Тошкент, 1976. – Б. 99.
7. ЎзМА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 949-иш, 17-20-варақлар; Истанбулда Бухоро жамияти хайрияси // “Таржимон” газетаси. 1909 йил 25 декабр.
8. ЎЗР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 5-варақ.